

O'ZBEKISTONDA OILADAGI SIBLING MUNOSABATLARNI FARZANDLARNING KASB MOTIVATSIYASIGA TA'SIRINI O'RGANILGANLIGI.

Zaynobidinov Jalolidin,
Psixologiya fanlari nomzodi,
Dotsenti,

Akbarova Muazzam Jaloliddinovna
FDU II kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola O'zbekistonda oiladagi sibling munosabatlarni farzandlarning kasb motivatsiyasiga ta'sirini O'zbek olimlari tomonidan oiladagi sibling maqomi va sibling munosabatlarni farzandlarning kasb motivatsiyasiga ta'siri haqidagi fikrlari va olib borgan tadqiqodlarini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: reproduktiv vazifasi, etnopsixologik hususiyatlar, demografik, oila psixologiyasi, motivatsiya, sibling munosabatlar, oilaviy roller.

Ona zaminimiz uzoq asrlik boy qadryatlari va ruhiyatiga mos bo'lган nihoyatda muhim qadryatlaridan biri, jamiyatning yeng kichik va aziz bo'lagi-oiladir. Yurt rivojlanishi jarayonida oilaviy munosabatlar, ota-onalar va farzandlarning o'zaro munosabatlarida yuzaga keladigan muammolarini o'rganish hamisha keng ilmiy jamoatchilik diqqat markazida bo'lib kelgan. Mazkur soxada millatimiz olimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Respublikamizning demograf olimlari, iqtisodchi, siyosatchi, sotsiologlari - M.B.Bo'riev, I.R.Mullajonov, M.Q.Qoraxonov, O.B.Otamirzaev, R.A.Ubaydullayeva, N.S.Aliqoriyev, N.A.Aliakbarova, X.Nazarova; pedagog olimlar-D.J.Sharipova, M.Inomova, A.K.Munavvarov, O.Musurmonova, I.Nurmuhammedov; psixolog olimlar-M.G.Davletshin, V.M.Karimova, Ye'G'.G'oziev, G'.N.Shoumarov, B.R.Qodirov, B.A.Tokareva, SH.R.Barotov, Z.T.Nishonova, N.S.Safarova, F.A.Akramova, E.N.Sattorov, S.X.Jalilova, SH.A.Do'stmuhammedova, M.S.Salaeva, N. G'oyipova va boshqalar ilmiy izlanishlarida o'zbek oilasining o'ziga xos hususiyatlari, munosabatlari borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

O'zbekiston Respublikasida oilaning eng muhim vazifalaridan reproduktiv vazifasi asosiy demografik jarayon sifatida mukammal o'rganilgan. O'zbekistonda tug'ilish darajasining XIX asr ikkinchi yarmidan to hozirga qadar kuzatiladigan dinamikasi, hududiy va milliy hususiyatlari ko'plab olimlarimizning ilmiy tadqiqodlarida o'z ifodasini topgan.

Respublikamizning yetakchi demograf olimlaridan biri M.Bo'rieva o'zining qator ishlarida o'zbek oilasida farzand tug'ilishi, oilaning iqtisodiy ta'minoti, ma'lumotlilik darjasasi, bolalarning ta'lim va tarbiyasi, oila a'zolarini moddiy jihatdan qay tartibda ta'minlanganini o'rgangan.

Sotsiolog R.Ubaydullayeva zamonaviy o'zbek oilasida farzand soniga nisbatan munosabati aniqlashga bag'ishlangan ishlarida so'nggi yillarda Respublikamizda bu masala bo'yicha o'zgarishlar ro'y berayotganini ta'kidlaydi. .

Pedagog olim A.K.Munavvarov ota-onalarning bolalar tarbiyasi yuzasidan mas'uliyatini kuchaytirish, tarbiyalashga oid layoqatini oshirish, oilaviy va ijtimoiy tarbiya birligini tartiblash borasida chuqr izlanishlar olib bordi.

Professor M.G.Davletshin va G'.B.Shoumarovlar hozirgi zamon o'zbek oilasining hususiyatlarini o'rganib, uning o'ziga hos hususiyatlaridan biri oiladagi farzandlar soni oilaning ijtimoiy mavqeyiga ta'sir qilishini aniqladilar.

Professor Ye.G'oziev o'z tadqiqodlarida barkamol inson shaxsini tarkib toptirishda o'zbek xalqining etnopsixologik hususiyatlaridan unumli foydalanish, ya'ni o'zbek xalqining an'anlari vositasida bolalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish, o'zaro ichki munosabatlarni tarkib toptirish, ota-onva farzand munosabatlarini yaxshilashga qaratilganligini ko'rsatadi.

V.M.Karimova oilaviy hayot va undagi o'zaro murakkab munosabatlarning qonuniyatlarini, mexanizmlarini o'rganishga doir ko'plab ilmiy ishlar muallifidir. Olima yoshlarda o'zbek oilasi haqidagi ijtimoiy tasavvurlarni o'rganib, turli ijtimoiy guruh vakillarining oilaviy rollar, oilaviy qadriyatlar, er-xotinning oiladagi ijtimoiy mavqeyi, reproduktiv tasavvur va ustanovkalar shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni tadqiq qildi. V.M.Karimova "Oilaviy hayot psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida (2006 y.) hamda "Oila psixologiyasi" nomli darsligida (2007 y.) Respublikamizda ilk marotaba aka-ukalik va opa-singillik, ya'ni sibling munosabatlarga ye'tiborni qaratib, har bir sibling maqomini o'ziga hosligini ta'rifladi. Bunda er-xotin va oiladagi sibling munosabatlarning bola shaxsiga ta'siri, jumladan, ota-onalik maqomi va farzandlar tarbiyasi sibling munosabatlarining to'ng'ich, o'rta, kenja va yagona farzandga psixologik ta'sirini o'rganar ekan, bunday holatlarning boladagi shaxsiy fazilatlar va nuqsonlarning paydo bo'lishiga qanchalik ta'sir qilishini aniqlaydi[85].

G'.B.Shoumarov taxriri ostida ilk bor akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun nashr etilgan "Oila psixologiyasi" darsligi nashr etilib, unda ham oiladagi turli munosabatlar turlari bayon etilgan.

Sh.A.Do'stmuhammedova ham ota-onva farzandlar o'rtasidagi munosabat bola shaxsi shakllanishidagi yetakchi omillardan biri deb hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitida o'zbek oilasini yuksak qadriyat sifatida ko'klarga ko'tarish, eng kichik va mo'jaz uyushma sifatida oilani mustaxkamlash, oiladagi sermazmun munosabatlarning tabiatini o'rganishga qaratilgan izlanishlarning davomiyligini ta'minlaydi. Yuqorida bayon yetilgan o'zbek olim va olimalarining olib borgan ilmiy-nazariy tadqiqotlar ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishga, oilalarda ota-onalar va farzandlar o'zaro munosabatlari doirasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ko'plab muammolarni oldini olishga hizmat qiladi.

Bundan ko'rinish turibdiki, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarida oil ava undagi shaxslararo munosabatlarning farzandlarning ta'lim va tarbiyasiga dahldorligi o'rganilgan bo'lsada, biz tadqiq etayotgan muammo, ya'ni, bolalarning kasb tanlash motivatsiyasiga ko'p farzandli oilalalrdagi aka-ukachilik ham opa-singilchilik, ya'ni sibling munosabatlarning ta'siri ilmiy jihatdan O'zbekiston sharoitida maxsus izlanishlarning ob'ekti hamda predmeti sifatida o'rganilmagan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Karimova V.M. Oila munosabatlar psixologiyasi. Toshkent- 2018.(121-130)b.
2. G'oipova N.A." O'smir sibling maqomining tengqurlari bilan bo'ladigan shaxslararo munosabatlarga ta'siri". Monografiya Toshkent-2016. 29-40-b.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b.
2. Shoumarov G.B. tahriri ostida. Oila psixologiyasi.T.: Sharq, 2009. -272 b.
3. Fayzieva M., Jabborov A. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. - Т.Ш арк 2007.
4. Доброславович В. Любовь или влюблённость? Москва. Академия 1999 г.

International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences

Berlin, Germany

June 3rd 2022

conferencezone.org

5. 5.Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi o‘quv qo‘llanma. T.,Шарқ 2006